



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

OLIV TA'LIMDA MA'NAVIV-MA'RIFIV TIZIMNING INTEGRAL MODEL: NAZARIYA VA QIYOSIV TAHLIL

Z.E.Azimova

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada globalashuv va mafkuraviy xurujlar kuchaygan hozirgi sharoitda oliy ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning integral modeli va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida tarbiyaviy tizim samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan tashqi, ichki va protsessual pedagogik ziddiyatlar guruhlanib, ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda milliy ma'naviy meros hamda xalqaro tajriba, xususan, Yaponiya ta'lim tizimidagi "Wa" (uyg'unlik) va "Kokoro" (ruh) konsepsiyalarining o'zaro sintezi orqali talabalarda kasbiy ma'naviyatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni modernizatsiyalashga xizmat qiluvchi maqsadga muvofiqlik, integrativlik va adaptivlik kabi konseptual tamoyillar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:

Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, ma'naviy-ma'rifiy ekotizim, pedagogik ziddiyatlar, integral model, Yaponiya tajribasi, kasbiy ma'naviyat, mafkuraviy immunitet, pedagogik filtr.

Аннотация.

В данной статье исследуются интегральная модель и методологические основы организации духовно-просветительской работы в высших образовательных учреждениях в современных условиях усиления глобализации и идеологических угроз. В ходе исследования сгруппированы внешние, внутренние и процессуальные педагогические противоречия, препятствующие эффективности воспитательной системы, и проанализированы пути их устранения. В статье освещены вопросы формирования профессиональной духовности студентов посредством синтеза национального духовного наследия и международного опыта, в частности концепций «Wa» (гармония) и «Kokoro» (душа) японской системы образования, при создании фундамента Третьего Ренессанса. Также обоснованы такие концептуальные принципы, как целесообразность, интегративность и адаптивность, служащие модернизации духовно-просветительских процессов.

Ключевые слова:

Новый Узбекистан, Третий Ренессанс, духовно-просветительская экосистема, педагогические противоречия, интегральная модель, японский опыт, профессиональная духовность, идеологический иммунитет, педагогический фильтр.

Abstract.

This article examines the integral model and methodological foundations of organising spiritual and educational work in higher education institutions under the current conditions of intensifying globalisation and ideological threats. The study groups the external, internal and procedural pedagogical contradictions that hinder the effectiveness of the educational system and analyses ways to overcome them. The article highlights the formation of students' professional spirituality through the synthesis of national spiritual heritage and international experience - in particular, the "Wa" (harmony) and "Kokoro" (spirit) concepts of the Japanese education system - in laying the foundation of the Third Renaissance. It also substantiates conceptual principles such as expediency, integrativity and adaptivity, which serve to modernise spiritual and educational processes.

Keywords:

New Uzbekistan, Third Renaissance, spiritual and educational ecosystem, pedagogical contradictions, integral model, Japanese experience, professional spirituality, ideological immunity, pedagogical filter.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi shuni ko'rsatmoqdaki, davlatning qudrati nafaqat uning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy quvvati bilan, balki uning ma'naviy darajasi va intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug'vor maqsad sari intilayotgan xalqimiz uchun ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi hayot-mamot masalasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni [1] hamda 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori [2] sohada tub burilish yasadi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalar oliy

ta'lim tashkilotlarini nafaqat bilim beruvchi maskan, balki umummilliy qadriyatlar, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillar hamda vatanparvarlikning o'choqlariga aylantirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi yot g'oyalarning yoshlar ongiga tajovuzi oliy ta'lim tizimidagi tarbiya mantiqini tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Axborot makonining ochiqligi sharoitida talabalarda "pedagogik filtr" yoki mafkuraviy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limdagi ma'naviy-ma'rifiy muhit stixiyali ta'sirlardan himoyalangan, integral va tizimli bo'lishi shart.

Tarbiyaviy tizimning samaradorligi talaba shaxsining ichki e'tiqodi shakllanishi bilan o'lchanadi. Bu jarayon kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik bosqichlarni o'z ichiga oladi. Aynan mana shu bosqichlarning integral birikmasi talabada nafaqat nazariy bilim, balki kasbiy ma'naviyat va milliy g'urur tuyg'usini shakllantiradi.

Uchinchi Renessans poydevori haqida gap ketganda, biz birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlaridagi buyuk allomalarimiz va davlat arboblariimizning ma'rifiy merosiga tayanmasdan turib yuksak natijaga erisha olmaymiz. Xususan, Ikkinchi Renessansning poydevorini yaratgan Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvida ilm-fan va ma'naviyatni birinchi darajali vazifa sifatida belgilagan. U yoshlar tarbiyasini quyidagi uchta ustun asosiga qurgan:

- Maktab tarmog'ini kengaytirish orqali savodxonlikni oshiris;
- Kitobni insonni tarbiyalovchi eng buyuk kuch deb baholash;
- Vatanparvarlik va harbiy-axloqiy bilimlar uyg'unligi.

Ushbu tarixiy an'analarning hozirgi davr islohotlari bilan uzviy bog'lanishi talaba-yoshlarda o'z xalqining buyuk o'tmishiga hurmat va buyuk kelajagiga ishonch tuyg'usini shakllantiradi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni modellashtirish shuni ko'rsatadiki, tizim samaradorligini pasaytiruvchi omillar ko'pincha tub pedagogik ziddiyatlarga borib taqaladi. Ushbu ziddiyatlarni aniqlash va guruhlash talabalarning kasbiy tarbiyasi tizimini rivojlantirishning fundamental shartidir.

Zamonaviy oliy ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi fundamental ziddiyatlar tizimli ravishda tashqi ijtimoiy-axborot, ichki strukturaviy va protsessual-dinamik sathi bo'yicha guruhlanib, ularni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlari ilmiy asoslanmoqda. Shu bilan birga, talaba-yoshlarning global axborot makonidagi mafkuraviy immunitetini ta'minlovchi "pedagogik filtr" tushunchasining funksional vazifalari, omillari, tamoyillari yuzasidan ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Tadqiqotlarda milliy ma'naviy meros hamda Yaponiya ta'lim tizimidagi "Wa" va "Kokoro" konsepsiyalari sintezi asosida bo'lajak mutaxassisning nafaqat kognitiv bilimlarini, balki uning emotsional-e'tiqodiy sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kasbiy ma'naviyatni shakllantirishning integral modeli taklif etilmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy tizimni modernizatsiyalashning konseptual tamoyillari sifatida maqsadga muvofiqlik, integrativlik va adaptivlik kabi determinantlar asoslanib, oliy ta'lim sharoitida nazariy bilimning shaxsiy e'tiqod va professional pozitsiyaga transformatsiyalashuv bosqichlari nazariy jihatdan dalillandi.

Kasbiy tarbiya tizimining ijtimoiy muhit bilan munosabatlarida bir qator fundamental muammolar tahlil qilinadi. Talaba shaxsini shakllantirish vazifalari va tashqi axborot xurujlarining kuchayishi o'rtasidagi ziddiyat bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. Bu jarayonda talabalarda mafkuraviy immunitetning yetarli darajada emasligi tarbiya subyektlari

oldiga yangi uslubiy talablarni qo'ymoqda. Shuningdek, oliy ta'lim tashkiloti tarbiyaviy tizimidan kutilayotgan ulkan ijtimoiy natija va ushbu masalani hal etish uchun real ma'naviy, ilmiy-uslubiy ta'minotning yetishmasligi o'rtasida ham jiddiy nomutanosiblik mavjud. Yosh mutaxassislarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish uchun barcha tarbiya subyektlari, jumladan professor-o'qituvchilar va jamoat tashkilotlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish zaruriyati mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ko'pincha subyektlarning boshqaruv va tarbiya jarayonlaridan uzilib yoki uzoqlashib qolganligi kuzatiladi.

Professor Lenyov Yu. A. [6] tadqiqotlarida qayd etilganidek: tarbiyaviy tizimning asosiy g'oyasi va uni amalga oshirish mexanizmlari o'rtasidagi nomutanosiblik oliy ta'limda integral muhit yaratishni taqozo etadi. Oliy ta'lim tashkiloti jamoasi tomonidan yangi tizimning qabul qilinishi va uni hayotga tatbiq etishdagi real tashkiliy-pedagogik qarshiliklar, tarbiya jarayonini innovatsion texnologiyalar yordamida texnologizatsiyalash zaruriyati va an'anaviy eskirgan yondashuvlar o'rtasidagi kurash tizimli muammolar sirasiga kiradi.

Ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy munosabatlarni rivojlantirish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilishi lozim. Bu jarayonda talabalarni kasbiy ma'naviy tarbiyalash tizimi oldida turgan vazifalar va ushbu tizim asosiy funksiyalarini amalga oshirishdagi kompleks yondashuv o'rtasidagi pedagogik ziddiyatlarni hal qilish talab etiladi. Zamonaviy pedagogika tarbiyani shunchaki tarbiyalanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladigan ta'sir sifatida emas, balki ma'lum ma'naviy-axloqiy tamoyillar, qadriyatlar va qoidalarni shakllantirish maqsadida inson ongiga o'tkaziluvchi rejali hamda maqsadli ijtimoiy hamkorlik shakli sifatida ko'radi. Ma'naviy-ma'rifiy tizimni modernizatsiyalash jarayonida guruh murabbiylari va jamoat tashkilotlarining tarbiyachilik rollarini kuchaytirish, demokratik muloqot uslubini modellashirish hamda o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi chinakam hamkorlikni ta'minlash asosiy yechim bo'lib xizmat qiladi.

Yaponiyaning ma'naviy ta'limga bo'lgan yondashuvi esa uning sinkretik diniy an'analari, jumladan buddizm, sintoizm va konfutsiylik ta'siri ostida shakllangan. Bu urf-odatlar uyg'unlik, ogohlik va axloqiy mas'uliyatni birinchi o'ringa qo'yadi. Yaponiya oliy ta'limida ma'naviy ta'lim aniq diniy xarakterda emas, balki shaxsiy o'sishga, axloqiy xulq-atvorga va jamiyatlardagi uyg'unlikka qaratilgan. Yaponiya universitetlarida ma'naviy ta'lim ko'pincha wa ya'ni uyg'unlik va kokoro ya'ni yurak yoki ruh kabi qadriyatlarni targ'ib qilib, talabalarining hissiy farovonligi va axloqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yaponiyada ma'naviy tarbiya aniq belgilangan kurslar ko'rinishida bo'lmasa-da, u gumanitar fanlar va atrof-muhitni o'rganish jarayonlariga singdirilgan bo'lib, choy marosimlari va meditatsiya mashg'ulotlari kabi darsdan tashqari tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ta'lim yanada aniq va tizimli ko'rinishga ega bo'lib, oliy o'quv yurtlarida Milliy g'oya va ma'naviyat hamda Axloq va dinshunoslik kabi fanlar o'quv dasturiga qat'iy kiritilgan. Ushbu kurslarda madaniy g'urur, an'analarga hurmat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida urg'u beriladi. Buyuk mutafakkirlarimizning hayoti va ijodi haqidagi darslar axloqiy va madaniy saboqlar berishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, universitetlarda ma'naviyat peshvolarining ma'ruzalari, milliy madaniyat bayramlari va xayriya loyihalari kabi tadbirlar orqali talabalarda amaliy axloqiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Har ikki davlatda ham ma'naviy qadriyatlar namunasini shakllantirishda pedagoglar markaziy rol o'ynaydi. Yaponiya ta'lim modelida o'qituvchining yo'l ko'rsatuvchi roli, O'zbekistonda esa pedagogning ma'naviy- axloqiy namuna sifatidagi maqomi ta'kidlanadi.

Yaponiya va O'zbekiston modellarining mazmunan mushtarakligi shundaki, har ikki tizim ham shaxsni jamiyatning ajralmas qismi sifatida ko'radi va uning ma'naviy dunyosini boyitish orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishni maqsad qiladi. O'zbekiston tajribasidagi aniq tizimlilik va Yaponiyaning amaliy-estetik tarbiya usullari (meditatsiya, choy marosimi) sintezi oliy ta'lim uchun integral ma'naviy-tarbiya modelini yaratishda mustahkam poydevor bo'la oladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarining ma'naviy-axloqiy munosabatlarini rivojlantirish va kasbiy ma'naviyatini shakllantirish jarayoni muayyan konseptual tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Mazkur tizimga qo'yiluvchi asosiy talablar birinchi navbatda maqsadga muvofiqlik tamoyilida o'z aksini topadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy tizim muayyan konsepsiyalar, bosh g'oya, dasturlar va vazifalarga mos ravishda tashkiliy-tuzilmaviy jihatdan qurilishi lozim. Bu jarayonda integrativlik tamoyili ham muhim o'rin tutib, u tizimning alohida differentsiatsiyalashgan qismlari va funksiyalarini bir butunlikka birlashtirishni, natijada esa tarbiya jarayoniga yaxlitlik bag'ishlashni nazarda tutadi. Shuningdek, tarbiyalovchi ta'lim tamoyili orqali talabalarining shaxsiy rivojlanishi va o'zi ustida ishlashi uchun ijobiy motivatsiya shakllantiriladi hamda o'qitilayotgan fanlar mazmunidagi tarbiyaviy potensialdan maksimal darajada foydalaniladi.

Kasbiy yo'nalganlik tamoyili bo'lajak mutaxassislar tomonidan kasbiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy qoidalarini o'zlashtirilishini ta'minlasa, tizimlilik, davomiylik va uzluksizlik tamoyili barcha vazifalarni kompleks bajarib, tarbiya jarayonida muvozanatsizlik va tarqoqlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Zamonaviy pedagogika tarbiyani shunchaki shaxsga o'tkaziluvchi tashqi ta'sir sifatida emas, balki turli sub'ektlarning ijtimoiy hamkorligi shaklida ko'radi.

Ma'naviy-axloqiy munosabatlarni rivojlantirish tizimiga xos bo'lgan ushbu pedagogik tamoyillar talabalarining kasbiy ma'naviyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash va tarbiya jarayonini modernizatsiyalash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Yakuniy maqsad - talabaning nafaqat professional bilimlarini oshirish, balki uning ichki e'tiqodi va axloqiy dunyoqarashini jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti ideallari bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish hamda talabalarining kasbiy ma'naviyatini shakllantirishga doir o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon nafaqat pedagogik, balki strategik ijtimoiy ahamiyatga ega. Tadqiqotlar davomida aniqlangan tashqi, ichki va protsessual pedagogik ziddiyatlar ma'naviy tarbiya tizimini modernizatsiyalashda asosiy to'siq bo'lib xizmat qilayotganligini inobatga olgan holda, ularni bartaraf etishning integral modelini amaliyotga tatbiq etish zarur. O'zbekiston va Yaponiya tajribasining qiyosiy tahlili shuni isbotladiki, milliy islomiy merosimiz va tarixiy allomalarimizning o'gitlarini Yaponiyaning uyg'unlik hamda hissiy intellektga asoslangan tarbiya metodlari bilan sintez qilish talaba-yoshlarda kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirishda yuksak samaradorlik beradi.

Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni modernizatsiyalashda biz tomonimizdan taklif etilgan "pedagogik filtr" mexanizmi Uchinchi Renessans poydevori uchun zarur bo'lgan ma'naviy yetuk mutaxassisni tarbiyalashda strategik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va ilmiy tahlillarga tayanib, sohani rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, oliy ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtirishda an'anaviy metodlardan voz kechib, talabalarining o'z-o'zini anglashiga xizmat qiluvchi interaktiv va sub'ektlararo hamkorlikka asoslangan

texnologiyalarni joriy etish lozim. Ikkinchidan, fanlarni o'qitish jarayonida "tarbiyalovchi ta'lim" tamoyili asosida har bir sohaning axloqiy-deontologik jihatlarini ochib berish kasbiy ma'naviyatni oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, xalqaro tajribadan olingan samarali usullarni, xususan, Yaponiyaning jamoaviy uyg'unlik va shaxsiy ruhni tarbiyalash metodlarini milliy pedagogik kontekstga moslashtirgan holda o'quv jarayoniga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Avloniy [10] ta'kidlaganidek, "...tarbiya biz uchun najot yoki halokat masalasidir" va ushbu mas'uliyatli jarayonning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish Yangi O'zbekistonning kelajakdagi saodati garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <http://www.dauwed.uz/upload/statement/20-09-2023/PF-158-%D1%81%D0%BE%D0%BD%2011.09.2023.%C2%A0%E2%80%9C%E2%80%98zbekiston%20%E2%80%93%202030%E2%80%9D%20strategiyas.pdf>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5344692>
3. Quronov M. O'zbek xarakteri va milliy g'oya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 160 b.
4. Shimahara N. K. Adaptation and Education in Japan. – New York: Praeger, 1991. – 190 p.
5. Макарова О. Ю. Научное обоснование концепции развития воспитательной системы высшего учебного заведения. – Москва, 2009. – 48 с.
6. Ленев Ю.А. Организация воспитательной работы в высшем учебном заведении: Дисс. ... докт. пед. наук. - М., 2003.
7. Ismailova Z. K. O'zbekistonning ma'naviy tarbiyasi: islom merosi va milliy qadriyatlar // Pedagogika. – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 12-18.
8. Кудрявцев Ю. М., Макарова О. Ю. Основные принципы и закономерности функционирования и развития воспитательной системы вуза // Вестник Казанского национального исследовательского технологического университета. – 2012. – № 8. – С. 451–458.
9. Матяш Л. Г. Ценностно-мотивационные детерминанты профессионального роста преподавателя высшей школы: автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Брянск, 2002. – 44 с.
10. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.

Z.E.Azimova

OLIIY TA'LIMDA MA'NAVY-MA'RIFIY TIZIMNING INTEGRAL MODELI: NAZARIYA VA QIYOSIY TAHLIL.....	69	73
--	----	----

Raxmatullayeva Gulnoza Mavlanjonovna

MILLIY G'OYA VA HUQUQIY FANLAR INTEGRATSIYASI VOSITASIDA TALABALARNING QADRIYATLI ORIENTATSIYASINI RIVOJLANTIRISH	74	77
---	----	----

Hakimov Nazar Hakimovich

OLIIY TA'LIMDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRILISH ZARURIYATI.....	78	82
---	----	----

Sirojiddinova Gulnora Habibullo qizi

KREATIVLIK FAOLIYATINING ILMIY TADQIQOT NATIJALARI.....	83	86
---	----	----

Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR.....	87	91
--	----	----

Sirojiddinova Gulnora Habibullo qizi

TALABALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI.....	92	96
--	----	----

D.G.Umnov

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF STUDYING THE IMPACT OF TARGETING ON THE CONSUMPTION CULTURE OF PRESCHOOL CHILDREN BY FUTURE EDUCATORS	97	109
---	----	-----

Нематова Наргизахон Мухтор кизи

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АНИМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА	110	115
--	-----	-----

Abdurakhimov Abdulatif Umurzakovich

YUQORI ENERGIYALAR FIZIKASIDA YADROVIY MODDANI YARATISH.....	116	119
--	-----	-----

Zarnigor Dripova, Umid Turdialiye

BENEFICIATION OF GLAUCONITE ORE FROM THE CHANGI DEPOSIT (UZBEKISTAN) VIA GRINDING AND MAGNETIC SEPARATION	120	132
---	-----	-----

Zaparov A.A.

THE DEVELOPMENT OF ANTI-CORROSION HETEROCOMPOSITE COATINGS FOR MACHINE PARTS BY USING LOCAL RAW MATERIALS	133	138
---	-----	-----

Умнова М.К

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	139	149
--	-----	-----

Mamatqodirov Ziynatulloh Nodirbek o'g'li

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISHDA GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINING SAMARADORLIGI.....	150	155
--	-----	-----

